

## SHAXSGA QARSHI JINOYATLAR VA ULARNING TASNIFLANISHI

Allayorova Zarnigor Ismoil qizi<sup>1</sup><sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi kunduzgi ta'lif  
3-o'quv kursi 311-guruh kursantiMAQOLA  
MA'LUMOTI

## MAQOLA TARIXI:

Received: 18.11.2024

Revised: 19.11.2024

Accepted: 20.11.2024

## ANNOTATSIYA:

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi maxsus qismining birinchi bo'limi ya'ni shaxsga qarshi jinoyatlar to'g'risida fikr yuritilgan bo'lib ushbu bo'limda keltirilgan moddalar va jinoyatlarning turlari va tasniflanishi haqida bayon qilingan.

## KALIT SO'ZLAR:

Konstitutsiya,jinoyat kodeksi,shaxsnинг hayoti va so'g'lig'iga qarshi jinoyatlar,fuqarolarning huquq va erkinliklariga qarshi jinoyatlar.

**KIRISH.** Hozirgi kunda mamalakatimizda fuqarolarning siyosiy qarashlari va fikrlar xilma-xilligi birmuncha shakllangan. Inson uning sha'ni qadri qimmati davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan hamda qonun normalarida mustahkamlanib bormoqda. Bosh qomusimiz bo'lgan konstitutsiyamizning 19moddasida "O'zbekiston Respublikasida insонning huquq va erkinliklari xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalariga binoan hamda ushbu Konstitutsiyaga muvofiq e'tirof etiladi va kafolatlanadi.Inson huquq va erkinliklari har kimga tug'ilganidan boshlab tegishli bo'ladi. O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, qonun oldida tengdirlar."deb ta'kidlab o'tilgan.Bundan ko'rishimiz mumkini barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega hisoblanadilar.Shundan kelib chiqqan holda inson uning manfaatlarini, uning huquq va erkinliklarini jinoiy tajovvuzlardan himoya qilish O'zbekiston Respublikasining jinoyat qonuning asosiy vazifasi hisoblanadi.

Shaxsga qarshi jinoyatlar bu insonning sha'ni qadr-qimmatiga,hayotiga, sog'lig'iga va konstitutsiyaviy huquq va erikinliklariga qarshi qaratilgan ijtimoiy xavfli qilmish hisoblanadi.Shaxsga qarshi jinoyatlar bu aynan bir shaxsga qarshi qaratilgan jinoyat hisoblanadi.Bunda insonning jismoniy ruhiy holatiga yoki mulkiy zarar yetkazishda ifodalanadigan harakat tushuniladi.Misol uchun ushbu jinoyatlarga qasddan odam o'ldirish,qasddan badanga shikast yetkazish,tanosil yoki OIV kasalligi/OITSni tarqatish,jinsiy zo'ravonlik kabilarni keltirsak bo'ladi.Bunday turdag'i jinoyatlar ko'p hollarda shaxsiy munosabatlarga asoslangan va shaxslarga bevosita zarar yetkazishga qaratilgan bo'ladi. Shaxsga qarshi jinoyatlar tasniflanishi bo'yicha quyidagi turlarga bo'linadi.

- ❖ Hayotga qarshi jinoyatlar
- ❖ So'g'liqqa qarshi jinoyatlar
- ❖ Hayot va so'g'liq uchun xavli jinoyatlar
- ❖ Jinsiy erkinlikka qarshi jinoyatlar
- ❖ Oilaga,Yoshlarga va axloqqa qarshi jinoyatlar
- ❖ Shaxsning ozozdligi, sha'ni va qadr-qimmatiga qarshi jinoyatlar
- ❖ Fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi jinoyatlar

Jinoyat qonunida belgilangan ushbu turdag'i jinoyatlar aynan shaxsga qarshi jinoyatlar bo'lib, ushbu jinoyatlar uchun qonunda turli javobgarliklar belgilangan. Ushbu jinoyatlardan bir nechtasini tahlil qiladigan bo'lsak:

- ✓ Qasddan odam o'ldirish:Huquqqa xilof ravishda,qasddan boshqa shaxsni hayotidan mahrum qilish odam o'ldirish deb e'tirof etiladi.
- ✓ Jismoniy zarar yetkazish:shaxsning jismoniy holatiga qasddan jarohat yetkazish, masalan, qattiq jismoniy hujumlar.
- ✓ Jinsiy zo'rslash:Shaxsni majburlash orqali jinsiy tahdidlar.
- ✓ O'z joniga qasdf qilishga undash:Moddiy tomondan yoki boshqa jihatlardan aybdorga qaram bo'limgan shaxsga rahmsiz muomala qilish yoki uning sha'ni va qadr-qimmati muttasil ravishda kamsitish natijasida uni o'zi o'ldirish yoki o'zini o'zi o'ldirishga suiqasd qilish darajasiga yetkazish.

Bu jinoyatlar shaxsning hayoti va salomatligiga bevosita tahdid solidi va ijtinoiy xavfsizlikka jiddiy zarar yetkazdi. Hayotiga qarshi jinoyatlar kop hollarda o'g'ir turdag'i jazolar bn jazolanadi, chunki bu turdag'i jinoyatlar jamoatchilik orasida qorquv va havotirni keltirib chiqaradi.So'g'liqqa qarshi jinoyatlar-bu inson salomatligiga zarar yetkazuvchi

harakat hisoblanadi. Bu jinoyatlar odamlarning salomatligiga jiddiy ravishda tahdid qiladi va ijtinoiy salomatlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun sog'liqqa qarshi jinoyatlar bilan kurashish muhim hisoblanadi. Sog'liqqa qarshi jinoyatlar inson salomatligiga jiddiy ziyon keltiruvchi karakat hisoblanadi. Bularga sog'liqni saqlash qonunlarini buzish, odamlarning hayotini xavf ostiga qo'yish, jinsiy infektsiyalarni tarqatish va noqonuniy narkotiklar savdosi kiradi. Ushbu jinoyatlar jamoatchilik salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi va ijtimoiy xavfsizlikka tahdid solidi. Shuning uchun sog'liqqa qarshi jinoyatlar bilan kurashish va ularning oldini olish har bir jamiyat uchun muhim vazifa hisoblanadi. Bu jarayonda qonun hujjatlari, sog'liqni saqlash tashkilotlari va ijtimoiy tadqiqotlar muhim rol o'ynaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Shaxsga qarshi jinoyatlar va ularning tasniflanishi inson huquqlarini himoya qilish, jamoatchilik xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikni oldini olish muhim ahamiyatga ega. Bunday jinoyatlar jismoniy, ruhiy, yoki mulkiy zarar yetkazish, shuningdek shaxsning ozodligi va sha'niga tahdid soluvchi harakatlarni o'z ichiga oladi. Shaxsga qarshi jinoyatlar tasnifi jinoyatchilikni tizimli ravishda tshunishga va ularni bartaraf etish bo'yicha samarali chora tadbirlar ishlab chiqishga yordam beradi, shuningdek, qonuniy chora-tadbirlarni kuchaytirish va jinoyatlarning oldini olishga qaratilgan ishlanmalarni yo'naltirishda muhimdir. Umuman olganda shaxsga qarshi jinoyatlarning o'zaro bog'liq sabablari va oqibatlarini tshunish, ularni samarali tahlil qilish va ularga qarshi kurashish uchun zarurdir. Bu shuningdek jamiyatda tinchlik va xavfsizlikni saqlash fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishda muhim rol o'ynaydi.

**Foydalansigan adabiyotlar:**

- 1.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi."O'ZBEKİSTON" Toshkent-2023.13-bet
- 2.Jinoyatkodeksi.<https://www.lex.uz/acts/1114533>.